

# Demografik holat


(dastlabki ma'lumotlar)

**Doimiy aholi soni.** Navoiy viloyati doimiy aholisi soni 2018 yil 1 aprel holatiga 961,3 ming kishini tashkil etib, 2018 yilning yanvar-mart oylarida 3,3 ming kishiga yoki 0,34 %ga o'sgan. Jumladan, shahar aholisi soni 469,0 ming kishini (jami aholi sonidagi ulushi 48,8 %), qishloq aholisi soni 492,3 ming kishini (51,2 %) tashkil etdi.

## E'tibor bering: 2018 yil yanvar-mart


- Aholi soni **3,3 ming kishiga** ko'paydi.
- Tirik tug'ilganlar soni **4,1 ming nafami** tashkil etdi.
- **1,0 mingta** vafot etganlar qayd etildi.
- FHDYO bo'limlarida **1,2 mingta nikoh** va **0,2 mingta ajralishlar** ro'yxatga olindi.

## Navoiy viloyati aholisining umumiy o'sishi (2018 yil yanvar-mart oylarida)




## Demografik holat

### Tumanlar kesimida doimiy aholi sonining taqsimlanishi (2018 yil 1 aprel holatiga, viloyat jami aholisiga nisbatan, %da)



Viloyat hududlari kesimida tahlillar shuni ko'rsatmoqdaki, 2018 yil 1 aprel holatiga eng ko'p aholi soni Xatirchi tumanida 192,4 ming kishini (viloyat aholisi sonidagi ulushi 20,0 %ni) va Qiziltepa tumanida 147,2 ming kishini (15,3 %), aksincha eng kam aholi soni Tomdi 14,4 ming kishini (1,5 %) va Konimex tumanida 29,8ming kishi (3,1 %) tashkil etdi.

Tumanlar kesimida aholining eng yugori o'sish sur'ati 2017 yilning mos davriga nisbatan Karmana tumanida 2,8 %ni, Zarafshon shahrida 2,0 %ni, Uchquduq tumani-da 1,9 %ni, aksincha eng kam o'sish sur'ati Tomdi -0,7 %ni va Konimex tumanida 0,3 %ni tashkil etdi.



## Demografik holat

**Tug'ilish.** 2018 yilning yanvar-mart oylarida 4,1 mingta bola tug'ilganligi qayd etilgan bo'lib (bu yerda va bundan keyin tug'ilganlarga faqat tirik tug'ilganlar inobatga olingan), mos ravishda 1000 aholiga nisbatan tug'ilish koeffitsiyenti 17,5 promilleni tashkil etib, 2017 yilning mos davriga nisbatan 0,7 promillega kamaygan (2017 yilning yanvar-mart oylarida 18,2 promille bo'lgan).

Tug'ilish koeffitsiyenti 2017 yilning mos davriga nisbatan birgina Qiziltepa tumanida (14,4 promilledan 16,3 promillega) o'sgan bo'lib, aksincha sezilarli kamayish esa Konimex (24,0 promilledan 19,1 promillega) va Karmana (19,7 promilledan 17,4 promillega) tumanlarida kuzatildi.

### Ma'lumot uchun

Tirik tug'ilganlik mezonlaridan (nafas, yurak urishi, kindik pulsatsiyasi, muskullarning beixtiyoriy qisqarishi) biri mavjud bo'lsa ham bola tirik tug'ilgan hisoblanadi. Bunda onaning homiladorlik muddati 22 hafta va undan ortiq, bolaning bo'yi 25 sm va undan ortiq, vazni 500 gramm va undan ortiq bo'lishi lozim.

### Tumanlar bo'yicha tug'ilganlar soni, kishi Yanvar-mart

	2017 y.		2018 y.	O'sish sur'ati, %da
	kishi	kishi		
<b>Navoiy viloyati</b>	<b>4 247</b>	<b>4130</b>		<b>97,2</b>
Navoiy sh.	626	594		94,9
Zarafshon sh.	358	363		101,4
<i>tumanlar:</i>				
Konimex	175	140		80,0
Qiziltepa	516	592		114,7
Navbahor	450	439		97,6
Karmana	584	531		90,9
Nurota	411	393		95,6
Tomdi	49	44		89,8
Uchquduq	189	182		96,3
Xatirchi	889	852		95,8

## Demografik holat

**Vafot etganlar.** 2018 yilning yanvar-mart oylarida 1,0 mingta o'lim qayd etilgan bo'lib, mos ravishda 1000 aholiga nisbatan o'lim koeffitsiyenti 4,2 promilleni tashkil etib, 2017 yilning mos davriga nisbatan 1,0 promillega kamaydi (2017 yilning yanvar-mart oylarida 5,2 promille bo'lgan).

O'lim koeffitsiyenti 2017 yilning mos davriga nisbatan Zarafshon shahrida 3,6 promilledan 4,2 promillega) va Tomdi tumanida (5,0 promilledan 5,1 promillega) o'sgan bo'lib, sezilarli darajada kamayishi Konimex (7,5 promilledan 3,3 promillega), Uchquduq (5,4 promilledan 3,6 promillega), Karmana (6,2 promilledan 4,4 promillega) va Nurota (5,6 promilledan 3,8 promillega) tumanlarida kuzatildi.

### Tumanlar bo'yicha o'lganlar soni, kishi Yanvar-mart


	2017 y.	2018 y.	O'sish sur'ati, %da
<b>Navoiy viloyati</b>	<b>1 211</b>	<b>994</b>	<b>82,1</b>
Navoiy sh.	193	170	88,1
Zarafshon sh.	71	84	118,3
<i>tumanlar:</i>			
Konimex	55	24	43,6
Qiziltepa	175	154	88,0
Navbahor	138	104	75,4
Karmana	183	133	72,7
Nurota	121	85	70,2
Tomdi	18	18	100,0
Uchquduq	48	33	68,8
Xatirchi	209	189	90,4

## Demografik holat

2018 yilning yanvar-mart oylarida qayd etilgan vafot etganlarning 64,6 %i qon aylanish tizimi kasalliklaridan, 8,8 %i o'simalardan, 5,3 %i ovqat hazm qilish a'zolari kasalliklaridan, 7,4 %i baxtsiz hodisa, zaharlanish va jarohatlanishlardan, 1,6 %i nafas olish a'zolari kasalliklaridan, 1,0 %i yuqumli va parazitlar kasalliklardan hamda 11,3 %i boshqa kasalliklardan vafot etgan.

Ro'yxatga olingan 1 yoshgacha vafot etgan bolalar soni 0,1 ming nafarni tashkil etib, ularning 84,5 %i perinatal davrda yuzaga keladigan holatlardan, 8,3 %i nafas olish a'zolari kasalliklaridan, 2,8 %i tug'ma anomaliyalardan, 1,1 %i baxtsiz hodisa, zaharlanish va jarohatlanishlardan, 1,1 %i yuqumli va parazitlar kasalliklardan, va 2,2 %i boshqa kasalliklardan vafot etgan.

### Asosiy o'lim sabablari bo'yicha vafot etganlarning taqsimlanishi (jami vafot etganlarga nisbatan, %da)



### 2018 yil yanvar-mart

**Tabiiy o'sish.** 2018 yilning yanvar-mart oylarida aholining tabiiy o'sishi 3,1 ming kishini tashkil etib, 2017 yil mos davriga nisbatan 0,1 ming kishiga (2017 yilning yanvar-mart oylarida 3,0 ming kishi bo'lgan) o'sgan.



Tabiiy o'sish:  
3,1 ming kishi

## Demografik holat

**Nikoh va nikohdan ajralishlar.** 2018 yilning yanvar-mart oylarida FHDYO organlari tomonidan 1,2 ming nikoh va 0,2 mingta nikohdan ajralishlar qayd etildi, mos ravishda 1000 aholiga nisbatan nikoh tuzish va nikohdan ajralish koeffitsiyenti 9,4 va 1,0 promilleni tashkil etdi.



### Tumanlar bo'yicha nikohlar va ajrimlar soni, birlik Yanvar-mart

	Tuzilgan nikohlar			Nikohdan ajralishlar		
	2017 y.	2018 y.	O'sish sur'ati, %	2017 y.	2018 y.	O'sish sur'ati, %
<b>Navoiy viloyati</b>	<b>1 089</b>	<b>1158</b>	<b>106,3</b>	<b>292</b>	<b>246</b>	<b>84,2</b>
Navoiy sh.	186	184	98,9	80	65	81,3
Zarafshon sh.	86	81	94,2	37	22	59,5
<i>tumanlar:</i>						
Konimex	32	42	131,3	6	7	116,7
Qiziltepa	203	173	85,2	30	32	106,7
Navbahor	107	110	102,8	19	17	89,5
Karmana	173	162	93,6	42	30	71,4
Nurota	58	79	136,2	16	13	81,3
Tomdi	15	16	106,7	2	5	250,0
Uchquduq	32	53	165,6	14	14	100,0
Xatirchi	197	258	131,0	46	41	89,1

## Demografik holat

**Migratsiya.** 2018 yil yanvar-mart oylarida viloyat bo'yicha ko'chib kelganlar soni 3,4 ming kishini, ko'chib ketganlar soni esa 3,2 ming kishini tashkil etdi. Migratsiya saldosi 0,2 ming kishi bo'lib, 2017 yilning mos davrida 0,1 ming kishi bo'lgan.

### Aholi migratsiyasi (ming kishi)

	2017 yil yanvar-mart	2018 yil yanvar-mart
<b>Ko'chib kelganlar</b>	3,8	3,4
<b>Ko'chib ketganlar</b>	3,7	3,2
<b>Migratsiya saldosi</b>	0,1	0,2

Migratsiya saldosining yuqori darajasi Karmana (plyus 0,4 ming kishi) va Navoiy shahri (minus 0,3 ming kishi) qayd etildi.